UDK: 94(575.12):36(04)

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH YANGI O‘ZBEKISTON SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHLARIDAN BIRI

Nurmatov Abdujabbor Ne’matjonovich, *kafedra dotsenti,*
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi,
E-mail: abdujabbornurmatov@gmail.com
Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya:*Mazkur maqolada O‘zbekistonda kambag’allikni qisqartirish borasida amalga oshirilgan islohotlar. 2017-yildan boshlangan yangi islohotlar davrida kambag’allikni qisqartirish borasida olib borilgan yangicha yondashuvlar va ularni aholi turmush darajasini yaxshilashdagi tutgan o‘rni tahlil qilingan.*

Аннотация:*В данной статье анализируются реформы, проведенные в Узбекистане с целью сокращения бедности. В период новых реформ, начавшихся в 2017 году, рассматриваются новые подходы к сокращению бедности и их роль в повышении уровня жизни населения.*

Annotation:*This article analyzes the reforms implemented in Uzbekistan to reduce poverty. During the new reforms that began in 2017, it examines new approaches to poverty reduction and their role in improving living standards.*

Kalit so‘z: *kambag’allik, iqtisodiyot, ijtimoiy, bandlik, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, “Temir daftar”, islohot, tadbirkorlik.*

Ключевые слова: *бедность, экономика, социальная сфера, занятость, «Женская тетрадь», «Молодежная тетрадь», «Железная тетрадь», реформа, предпринимательство.*

Key words: *poverty, economy, social sphere, employment, “Women’s Notebook”, “Youth Notebook”, “Iron Notebook”, reform, entrepreneurship.*

Kirish. Kambag‘allikni qisqartirish har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va rivojlanish strategiyasidagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, mamlakatimizda ham mustaqillik yillarida barcha sohalar qatori aholi turmush darajasini oshirish va kambag‘allikni kamaytirish e’tibor qaratildi. Bugungi kunda kambag‘allik muammosi dunyoning ko‘plab mamlakatlari uchun dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Aholining munosib turmush darajasini ta’minlash, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish kambag‘allikni qisqartirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli ham zamonaviy davlat siyosatida kambag‘allikni kamaytirish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham kambag‘allikni qisqartirish muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifa sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda mamlakatimizda aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish hamda aholining ehtiyojmand qatlamlarini manzilli qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kambag‘al oilalarni aniqlash va ularga tizimli yordam ko‘rsatish maqsadida yangi institutsional mexanizmlar joriy etilib, bu jarayon davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylantirildi.

Mazkur islohotlar nafaqat aholining daromadlarini oshirish va turmush darajasini yaxshilashga, balki ijtimoiy adolatni ta’minlash, jamiyatda barqarorlikni mustahkamlash hamda mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bois kambag‘allikni qisqartirish masalasini ilmiy jihatdan o‘rganish, uning samarali mexanizmlarini tahlil qilish va amaliy natijalarini baholash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ta’kidlash kerakki, bu boradagi islohotlar ayniqsa 2017-yildan boshlangan yangi islohotlar jarayonida sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqildi. Chunki, yangi O‘zbekiston siyosatida kambag‘allikni

qisqartirish nafaqat iqtisodiy vazifa, balki ijtimoiy barqarorlik va milliy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. Bunda aholini ish bilan ta’minlash, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasini rivojlantirish, hamda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish kabi kompleks chora-tadbirlar muhim rol o‘ynaydi. Davlatimiz rahbari SH.Mirziyoyev 2025-yil sentabr oyida Namangan shahrida o‘tkazilgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” III xalqaro forumida dunyoda kuzatilayotgan geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy beqarorlik, iqlim o‘zgarishlari ta’sirida global iqtisodiy o‘sish sekinlashgani, oqibatda kambag‘al aholi soni oshganiga e’tibor qaratib, bu holat barcha davlatlar, xalqaro tashkilotlar, umuman, dunyo hamjamiyati oldiga yangi va dolzarb vazifalarni qo‘yayotgani ta’kidladi [1].

Kambag‘allik – turmush kechirish, mehnat layoqatini saqlab turish, avlodlar uzviyligini davom ettirish uchun zarur bo‘lgan eng kam ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhlar iqtisodiy ahvolining ko‘rsatkichidir. “Kambag‘allik” nisbiy tushuncha hisoblanib, har bir jamiyatdagi turmush darajasining umumiy standartiga bog‘liq bo‘ladi. Kambag‘allik holati resurslarning uzoq muddat davomida yetarli bo‘lmasligini avvalgi jamg‘armalar bilan ham, qimmat tovarlarni xarid qilishdan vaqtincha tejash hisobiga to‘plangan mablag‘ bilan ham qoplash imkoniyati mavjud emasligini ko‘rsatadi [2]. Umumiy olib qaraganda kambag‘allik muayyan maqbul turmush darajasini ta’minlay olmaslik, ya’ni ma’lum bir shaxs yoki oila zaruriy ehtiyojlarining imkoniyatlardan oshib ketishidir. Kambag‘allikni baholash bir nechta aniq belgilangan ko‘nikma va usullarni talab qiladi. Tan olingan qarashlarga ko‘ra, kambag‘allikni o‘rganish va o‘lchashda nazariy uslubiy yondashuvlar uchta asosiy tamoyillardan kelib chiqiladi, ya’ni bular: mutloq kambag‘allik, nisbiy kambag‘allik va sub’ektiv kambag‘allik darajalari bilan belgilanadi.

Usul. Mazkur maqolani yoritishda Tahliliy usul, taqqoslash usuli, mantiqiy tahlil, Statistik yondashuv usullaridan foydalanildi.

Natija. Bugungi kunda dunyo aholi sonining muttasil ravishda ortib borishi, iqtisodiy va ekologik muammolarning kuchayib borishi barcha sohalar qatori aholi turmush darajasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu jihatdan ham mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish va bu bora izchil islohot olib borish muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Aholi moddiy ta’minotida yuzaga kelayotgan muammolarning tarixiy ildizlarini o‘rganish, shuningdek, mintaqalarning o‘ziga xos imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kambag‘allikni qisqartirish mexanizmlarini ishlab chiqish, turmush darajasi past hududlarga qo‘shimcha yondashuvlarni tatbiq etish, aholi daromad va xarajatlari miqdori hamda oziq-ovqat xavfsizligining tarkibiy qismlari mutanosibligini ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. 2017-yildan boshlangan yangi islohotlar mobaynida O‘zbekistonda aholi turmush darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, Prezident Sh. Mirziyoyevning “Davlatimiz siyosatining barcha ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda kambag‘allikni qisqartirish muhim o‘rin egallaydi” [3] deya ta’kidlaganligi ham kambag‘allikni qisqartirish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy vazifalaridan biri ekanligini ko‘rsatmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, kambag‘allik mamlakatimizda ko‘p yillar mobaynida “yopiq mavzu” bo‘lib keldi. Yillar mobaynida kambag‘allik tushunchasi o‘rniga yumshatish qabilida “kam ta’minlanganlik”, “ehtiyojmand” tushunchalaridan foydalanildi. Natijada, bu boradagi mavjud muammolarga yetarli darajada e’tibor qaratilmasligiga va ularning to‘planib qolishiga olib keldi. Shundan kelib chiqqan holda, davlat rahbari Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida O‘zbekiston tarixida birinchi marta ushbu masalaga alohida to‘xtalib, kambag‘allikni qisqartirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Shundan kelib chiqqan holda, bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan islohotlar olib borildi. Jumladan, Respublika Prezidentining 2020-yil 26-martdagi Qarori[4] bilan tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va

kambag‘allikni qisqartirish vazirligi mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish hamda aholi turmush darajasi va sifatini yanada takomillashtirishga qaratilgan muhim amaliy chora-tadbirlardan biri bo‘ldi. Qolaversa, aholi turmush farovonligini ta’minlashning iqtisodiy omilini tashkil etuvchi ish o‘rinlarini yaratish va kengaytirish orqali aholi daromadlarini oshirish va kambag‘allikni qisqartirishga alohida e’tibor qaratildi.

Yangi islohotlar davrida kambag‘allikni qisqartirish hamda aholini moddiy va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat boshqaruvida manzilli va tizimli yondashuvlar joriy etildi. Xususan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq aniqlash va ularga individual yordam ko‘rsatish mexanizmini shakllantirish maqsadida “Temir daftar”, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” kabi innovatsion ijtimoiy ro‘yxatga olish tizimlari amaliyotga tatbiq etildi. Ushbu mexanizmlar orqali kam ta’minlangan oilalar, ishsiz yoshlar hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj xotin-qizlar to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar shakllantirilib, ularga manzilli ijtimoiy yordam, bandlikni ta’minlash, kasb-hunar o‘rgatish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Mazkur yondashuv davlatning ijtimoiy siyosatini yanada samarali tashkil etish, ijtimoiy muammolarni joylarda aniqlash va ularni tezkor bartaraf etish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, ushbu tizimlar kambag‘allikni qisqartirishda manzillilik, shaffoflik va samaradorlik tamoyillarini ta’minlab, aholining turmush darajasini yaxshilash hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam ko‘rsatish yoki ularni miqdorini oshirish bilangina barqaror daromadga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham insonlar turmush darajasi barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi iqtisodiy omillar, ya’ni tobora o‘sib borayotgan aholi soniga hamohang tarzda ish o‘rinlarini shakllantirib borish, insonlarni tadbirkorlik, ishbilarmonlikka keng jalb qilish va bu boradagi harakatlarini qo‘llab-quvvatlash, imkoniyatlar yaratib berilishi muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, bu o‘z navbatida aholi taraqqiyotiga xizmat qiladi. Kambag‘allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko‘paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o‘qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg‘otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o‘qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to‘lash tizimini joriy qilish kerak. Albatta aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va ular faoliyatlari qo‘llab-quvvatlash, kasbiy malakasini oshirish bu kambag‘allikni kamaytirish eng asosiy omili hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, yangi islohotlar mobaynida respublika hududlari miqyosida har bir oilaning barqaror daromad manbaiga ega bo‘lishi va bandligini ta’minlash maqsadida hududlarda daromad keltiruvchi turli sohalar bo‘yicha kasbga o‘rgatish kurslari tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyunda “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi Qarori [5] qabul qilindi. Ushbu Dasturga asosan respublikaning har bir hududlari, eng avvalo olis va tabiiy-iqlim sharoiti og‘ir hududlarda aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan aholining tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish hamda ishbilarmonlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda amaliy yordam ko‘rsatish belgilandi.

Dunyo tajribasidan ko‘rish mumkinki, kichik korxonalarning aksariyati oilaviy korxona shaklida faoliyat yuritmoqda. Masalan, Xitoyda oilaviy tadbirkorlik ancha rivojlangan bo‘lib, deyarli ko‘pchilik oilalarda qandaydir mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat turi mavjud. Shundan kelib chiqqan holda, “Har bir oila – tadbirkor” dasturi dastlab namunaviy tarzda aholi zich yashaydigan Andijon viloyatida amalga oshirilib, viloyatning ko‘plab hududlarida, hunarmandchilik, tikuvchilik, qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish, ixcham issiqxonalarni tashkil etish, qoramolchilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik, turli maishiy xizmatlar ko‘rsatish kabi tarmoqlar bilan shug‘ullanuvchi oilaviy tadbirkorlik faoliyatlari yo‘lga qo‘yildi.

Dasturning yana bir muhim ahamiyatli tomoni – kam ta’minlangan oilalarga alohida e’tibor qaratilgan holda, tadbirkorlik va daromad keltiradigan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmaganlarga tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘rgatish va tegishli faoliyat turini tashkil

etishga har tomonlama amaliy yordamlar ko‘rsatildi. Bu boradaga ishlarning respublika miqyosida keng tatbiq etilishi aholi bandligi va moddiy farovonligini oshirishdagi muhim omillardan biri bo‘ldi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida kambag‘allikni qisqartirish borasida qisqa va uzoq muddatlarga muljallangan kompleks chora- tadbirlar, shuningdek sohaga oid davlat siyosatini yuritish uchun zarur bo‘lgan barcha xuquqiy-tashkiliy asoslar yaratildi. Jumladan, ilk bor yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” tushunchasining kiritilishi davlatning fuqarolar bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish, aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish kabi sohalardagi majburiyatlari belgilab quyildi.

Qisqa vaqt ichida bu yo‘nalishda quyidagi natijalarga erishilgani ham shundan dalolat beradi:

• yurtimizda ilk bor minimal iste’mol xarajatlarining qiymati joriy etildi;

• mamlakatimizda kambag‘allik darajasi 2021-yildagi 17 foizdan 2023-yil 11 foizga pasayib, 1,6 million fuqaro kambag‘allikdan chiqarildi, aholining kambag‘allik holatidan qashshoqlik holatiga o‘tishi xavfi keskin kamaytirildi;

• 2 million 300 mingdan ortiq ehtiyojmand oilalar, xotin- qizlar, yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar ijtimoiy himoya tizimi bilan to‘liq qamrab olindi. Ya’ni, kam ta’minlangan nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 barobar kopaydi hamda nogironligi bo‘lgan shaxslar va bolalarning parvarishi bilan band bo‘lgan shaxslar uchun yangi nafaqa turlari joriy etildi;

• ushbu maqsadlarga ajratilayotgan mablag‘lar hajmi 7 barobar oshdi. Umuman, ijtimoiy sohaga yo‘naltirilayotgan Davlat budjeti xarajatlari 2024-yilda 2018-yilga nisbatan 4,3 barobar o‘sdi [6].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston kambag‘allikni qisqartirish va inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha yetti ustuvor yo‘nalishni qamrab olgan kompleks dastur amalga oshirilmoqda. Olib borilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag‘allikdan chiqdi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla “kambag‘allikdan xoli” hududga aylandi. Ta’kidlash kerakki, yurtimizda kambag‘allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi. Kredit, subsidiya, kompensatsiya kabi 100 dan ziyod xizmatlar orqali ijtimoiy himoyaning mutlaqo yangi tizimini yo‘lga qo‘yganimiz va bularni mahalladagi “yettilik”ning o‘ziga berganimiz natijasida 8,5 milliondan ziyod odam kambag‘allikdan chiqdi, ishsizlik 2 karra qisqardi [7]. Bunday keng ko‘lamli sa’y-harakatlarimiz hisobiga O‘zbekiston 2030-yilga qadar kambag‘allikni 2 karra qisqartirish bo‘yicha olgan majburiyatini barvaqt bajarishga harakat qilyapti [8].

Muhokamalar. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, kambag‘allikni qisqartirish faqatgina moliyaviy yordam bilan cheklanmasligi lozim. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekiston siyosatida tizimli va kompleks yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ya’ni, ijtimoiy himoya, ta’lim, bandlik va tadbirkorlikni rivojlantirish o‘zaro uzviy bog‘liq holda amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, hududlar kesimida kambag‘allik darajasini kamaytirish, mahalliy imkoniyatlardan samarali foydalanish va aholining iqtisodiy faolligini oshirish masalalari yanada kuchaytirilishi zarur. Bu esa uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlaydi. Xalqimizning og‘irini yengil qilish, yangi ish urinlari yaratish, kambag‘allikka qarshi kurashishga qaratilgan dasturlarimiz ijrosini izchil tashkil etish, atrof-muxit, tabiiy boyliklar va madaniy merosimizni kuz qorachig‘idek asrash, tibbiyot, ta’lim kabi soxalardagi isloxotlarimizni davom ettirish va bu borada qonun buzilishiga murosasiz bo‘lish xuquqni muqofaza qiluvchi organlar xodimlarining konstitutsiyaviy burchi va eng asosiy vazifasidir [9].

Xulosa qilib aytganda, kambag‘allikni qisqartirish Yangi O‘zbekiston siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ushbu masalaga alohida e’tibor qaratilib, aholi turmush darajasini yaxshilash, daromad manbalarini ko‘paytirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, aholining bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, kasb-

hunar o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ehtiyojmand oilalarga manzilli yordam ko‘rsatish orqali kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha samarali tizim shakllantirilmoqda. Shuningdek, hududlarni kompleks rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ham aholi daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Davlat tomonidan ijtimoiy himoya tizimining takomillashtirilishi, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalariga qaratilayotgan e’tibor ham fuqarolarning farovon hayot kechirishiga xizmat qilmoqda. Natijada kambag‘allikni qisqartirish masalasi nafaqat davlat siyosatining muhim yo‘nalishi, balki jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olgan umummilliy harakatga aylanmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar aholi farovonligini oshirish, ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlash, shuningdek mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga mustahkam zamin yaratmoqda. Kelgusida ham bu boradagi izchil siyosat davom ettirilishi orqali har bir fuqaroning munosib hayot kechirishi uchun yanada keng imkoniyatlar yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://president.uz/oz/lists/view/8495
2. Мустафақулов Ш., Муродуллаев Н., Хамидов Р., Рахимбердиев О. Ўзбекистонда камбағалликни аниқлаш ва қисқартириш давлат сиёсати даражасида // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – №1. 2020. – Б. 78.
3. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston stretegiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021
4. “Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги ҳамда унинг тизим ташкилотлари фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” https://lex.uz/docs/4776766
5. https://lex.uz/ru/docs/3772869
6. Мирзиёев Ш.М.Ҳозирги замон ва янги Ўзбекистон. – Тошкент: Ўзбекистон, 2024.- Б. 211-212
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr.
8. https://president.uz/oz/lists/view/8495
9. Мирзиёев Ш.М.Ҳозирги замон ва янги Ўзбекистон. – Тошкент: Ўзбекистон, 2024.- Б. 447.